INCREASING THE EFFICIENCY INDICATORS OF DIESEL ENGINES BY IMPROVING THE COOLING SYSTEM	789
Khushnaye Obid, Orakbaeva Guljakhon	



TRANSPORT SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA IQTISODIY O'SISH INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUV VA IMKONIYATLAR.....	794
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
TURISTIK-REKREATSION XIZMATLARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	801
Usmanova Zumrad Islamovna	
МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В РАМКАХ РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА.....	806
Ахмедова Нилуфар Шукратовна, Курбонбекова Мохичехра Туробжоновна	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURCHILIGI USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	819
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHDA XAVF-XATARLARNI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	830
Saidova Sevaraxon Abdumo'min qizi	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR SANOAT SEKTORIDA SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI YASHIL MOLIALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	834
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ ЭКСПОРТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ.....	838
Бобоев М. Р.	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УСТОЙЧИВО-ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ ПРАКТИК SMART TOURISM ДЛЯ КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ).....	844
Усманова Азиза Баходировна	
ENERGY MANAGEMENT STRATEGIES FOR HYBRID ELECTRIC VEHICLES: A COMPREHENSIVE REVIEW.....	849
Asretdinova L.J., Gulnora Sh.Y.	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	864
B.Q. Madartov	
SINXRON GENERATORNING O'Z-O'ZIDAN CHAYQALISH JARAYONINI TAHLIL QILISH.....	867
Bekishev Allabergen Yergashevich, Zayniyeva Oliyaxon Egamberdiyevna, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Samadov Ilyos Azamat o'g'li	
SUG'URTA SOHASINING IQTISODIY-HUQUQIY MOHIYATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: NAZARIY ASOSLAR, MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR.....	875
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	
YANGI O'ZBEKISTON – UCHINCHI RENESSANS: CHORVACHILIKDA XALQ VETERINARIYASI XIZMATI TARIXI.....	880
Sayfudinova Djamila Badridinovna	
TALENT DEVELOPMENT AS A DRIVER OF EMPLOYEE JOB SATISFACTION IN UZBEKISTAN'S PRIVATE SECTOR: A MIXED-METHODS STUDY.....	885
Farida Nishanova	
FOTO ELEKTR STANSIYALARI TOMONIDAN ELEKTR ENERGIYANI ISH LAB CHIQRISH HOLATI TAHLILI.....	893
Saidov Mash'al Samadovich	
OILAVIY TADBIRKORLIK TARAQQIYOTIDA XORIJIY TAJRIBA HAMDA UNDA FOYDALANISH MEKANIZMLARI.....	900
Ermatov Nosir Toxirovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARINING HOLATI VA O'RNATILGAN QUVVATLARINI TAHLIL QILISH.....	907
Maxamadiyev Farrux Mirazimovich, Baratov Laziz Suyun o'g'li	



TIJORAT BANKLARINING XORIJIY KREDIT LINIYALARIDAN FOYDALANISH JARAYONIDA YUZAGA KELAYOTGAN MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO‘LLARI	912
Ayitboev Nodirbek Rashid o‘g‘li	
MINTAQALAR INVESTITSION SALOHİYATINI BAHOLASHNING INTEGRAL METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNI IJTIMOİY-IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA‘SIRI	916
Qobilov Anvar Eshpo‘lotovich	
THE IMPACT OF CULTURAL FACTORS ON VOCATIONAL EDUCATION REFORM IN SAUDI ARABIA.....	923
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
HUUDDLARNI IJTIMOİYIQTISODIY RIVOJLANISHDA YIRIK SOLIQ TO‘LOVCHILARNI DIFFERENTIAL YONDASHUV ORQALI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI.....	929
Imanova Umida Baxtiyarovna	
INSON KAPITALI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MEHNAT BOZORI BARQARORLIGINI TA‘MINLOVCHI OMIL SIFATIDA.....	934
Amanov Otabek Amankulovich	
DATA-DRIVEN BOSHQARUV MODELİ: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIYOT	938
Boboxo‘jayev Asliddin Muzaffarovich	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO‘RSATKICHLARI.....	943
Xasanov Axmadjon Shodiyarovich	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA IQTISODIY RESURSLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA KO'RSATKICHLARI

Xasanov Axmadjon Shodiyarovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: hasanovahmadzon559@gmail.com

Tel.: +998 77 527-04-04

Annotatsiya. Maqolada xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan, xususan, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini baholashning nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan. Tadqiqotda «samaradorlik» va «unumdorlik» tushunchalarining iqtisodiy mohiyati, ularning o'zaro farqlari hamda resurs-sarf yondashuvi tahlil qilingan. Xizmat ko'rsatish sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlikning uyg'unligi, ularni baholash mezonlari hamda mehnat unumdorligi va rentabellikni hisoblash formulalari taklif etilgan. Shuningdek, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish darajasi va xizmat ko'rsatish vaqtini qisqartirish kabi ijtimoiy ko'rsatkichlar tizimi shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, iqtisodiy resurslar, samaradorlik, unumdorlik, inson kapitali, resurs sarf yondashuvi, ijtimoiy samaradorlik, rentabellik, mehnat unumdorligi, baholash mezonlari.

Аннотация. В статье освещены теоретические и методические основы оценки эффективности использования экономических ресурсов, в частности человеческого капитала, на предприятиях сферы услуг. Анализируется экономическая сущность понятий «эффективность» и «производительность», их различия и ресурсно-затратный подход. Предложены критерии оценки социальной и экономической эффективности, формулы расчета производительности труда и рентабельности. Сформирована система социальных показателей, таких как уровень удовлетворения потребностей потребителей и сокращение времени обслуживания.

Ключевые слова: сфера услуг, экономические ресурсы, эффективность, производительность, человеческий капитал, ресурсно-затратный подход, социальная эффективность, рентабельность, производительность труда, критерии оценки.

Annotation. The article highlights the theoretical and methodological foundations for evaluating the efficiency of economic resources, particularly human capital, in service sector enterprises. It analyzes the economic essence of "efficiency" and "productivity", their differences, and the resource-cost approach. Criteria for assessing social and economic efficiency, as well as formulas for calculating labor productivity and profitability, are proposed. A system of social indicators, such as consumer satisfaction levels and service time reduction, has been established.

Keywords: service sector, economic resources, efficiency, productivity, human capital, resource-cost approach, social efficiency, profitability, labor productivity, evaluation criteria.

KIRISH.

Xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotgan sharoitda mehnat resurslaridan samarali foydalanish va uning natijadorligini baholash masalalari dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur sohada inson kapitali asosiy ishlab chiqarish omili sifatida namoyon bo'lib, xizmatlar sifati hamda korxonalar raqobatbardoshligi bevosita mehnat resurslari samaradorligiga bog'liq hisoblanadi.

Hozirgi iqtisodiy nazariyada "samaradorlik" va "unumdorlik" tushunchalari turlicha talqin qilinib, ular o'rtasidagi metodologik farqlar iqtisodiy tahlil tizimida muhim o'rin egallaydi. Samaradorlik natija va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ifodalasa, unumdorlik asosan ishlab chiqarish jarayonining mahsuldorlik darajasini aks ettiradi. Shu bois xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashda faqat resurs-sarf yondashuvi yetarli emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy omillarni birgalikda hisobga oluvchi kompleks yondashuv zarur.

Xizmat ko'rsatish faoliyatida iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir tomondan korxonalar natijadorligini ifodalasa, ikkinchi tomondan iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish darajasini aks ettiradi. Shu nuqtai nazardan, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda ko'rsatkichlar tizimini ilmiy asosda shakllantirish



muhim ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARXI.

Mehnat resurslarini boshqarish va samaradorlikni baholash masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Q.X. Abdurahmonov mehnat iqtisodiyoti doirasida inson kapitali hamda mehnat resurslarining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini asoslab, ularning samaradorligi korxonada faoliyatining asosiy natijaviy omili ekanligini ta'kidlaydi.

A. Armstrong va A.Ya. Kibanov ishlarida personalni boshqarish tizimi, xodimlar faoliyatini baholash hamda motivatsiya mexanizmlari korxonada samaradorligini oshirishning muhim vositasi sifatida ko'riladi. Ushbu yondashuvlarda mehnat resurslarini boshqarish strategik boshqaruvning ajralmas qismi sifatida talqin qilinadi.

G.V. Savitskaya hamda A.D. Sheremet va R.S. Sayfulinlar korxonada xo'jalik faoliyatini kompleks tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqib, omilli tahlil va iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi asosida samaradorlikni baholash imkoniyatlarini keng yoritgan.

Shuningdek, klassik iqtisodiy nazariyada J.B. Sey va J.B. Klark tomonidan ishlab chiqilgan unumdorlik nazariyalari ishlab chiqarish omillarining chegaraviy samaradorligi hamda daromad shakllanishidagi rolini asoslab beradi. Ushbu yondashuvlar bugungi kunda ham iqtisodiy tahlilning nazariy bazasini tashkil etadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlarda samaradorlik va unumdorlik tushunchalari keng yoritilgan bo'lsa-da, xizmat ko'rsatish sohasida ularni kompleks baholash, ayniqsa ijtimoiy va iqtisodiy mezonlarni integratsiyalash masalasi yetarli darajada takomillashmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik bazasini tizimli yondashuv, resurs-sarf konsepsiyasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyalashgan baholash tamoyillari tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida umummilliy va maxsus usullar majmuasidan foydalanildi. Xususan, abstraksiya va mantiqiy umumlashtirish usullari orqali "samaradorlik" hamda "unumdorlik" kategoriyalarining iqtisodiy mohiyati ochib berildi. Qiyosiy tahlil yordamida ularning o'zaro farqli va bog'liq jihatlari asoslandi. Statistik va dinamik tahlil usullari xizmat ko'rsatish korxonalarida resurslardan foydalanish ko'rsatkichlarining o'zgarish tendensiyalarini aniqlashda qo'llanildi.

Samaradorlikni baholashda determinatsiyalashgan omilli tahlil usuli asosiy instrument sifatida tanlandi. Ushbu yondashuv natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni ajratish va ularning ta'sir darajasini miqdoriy baholash imkonini berdi. Xususan, mehnat unumdorligi, xizmat sig'imi, ish haqi fondi hamda tushum hajmi kabi omillar o'rtasidagi funksional bog'liqlik multiplikativ model asosida tahlil qilindi.

Shuningdek, zanjirli o'rin almashtirish (eliminatsiya) usuli orqali har bir omilning yakuniy natijaga qo'shgan hissasi aniqlanib, samaradorlikdagi o'zgarishlarning ichki sabablari ochib berildi. Ijtimoiy samaradorlikni baholashda esa sifat ko'rsatkichlari, jumladan, iste'molchilar ehtiyojini qondirish darajasi, xizmat ko'rsatish vaqti hamda xizmat sifati indikatorlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Rivojlangan mamlakatlarda xizmat ko'rsatish sohasining kengayib borishi bilan mehnat jarayonida amalga oshiriladigan faoliyat samaradorligini baholash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bizning tadqiqotimizda ham ushbu muammoga e'tibor qaratiladi. Shu sababli dastlabki tadqiqot jarayonida "samaradorlik" hamda "iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligi" kategoriyalarining mohiyatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Samaradorlik tushunchasi murakkab va keng qamrovli kategoriya bo'lib, ilmiy adabiyotlarda (inglizcha efficiency) turli talqinlarga ega. U samaradorlik, mahsuldorlik, operativlik kabi tushunchalar bilan izohlanadi. Bugungi kunda ushbu kategoriya nafaqat iqtisodiyot fanlarida, balki boshqa ilmiy yo'nalishlarda ham keng qo'llanilmoqda.

Iqtisodiyot fanida "samaradorlik" tushunchasi keng va tor ma'nolarda talqin qilinadi. Keng ma'noda u atrof-muhitga adekvat va samarali moslashuv qobiliyati, nisbiy samara hamda operatsiyalar natijadorligi sifatida qaraladi. "Unumdorlik" (inglizcha productivity) esa ishlab chiqarish faoliyatining mahsuldorligi sifatida talqin etiladi.

Resurs-sarf yondashuvida samaradorlikni aniqlashda unumdorlik ko'rsatkichidan foydalaniladi. Biroq bu ikki kategoriya mazmun jihatidan farqlanadi: unumdorlik ishlab chiqarish jarayoniga xos bo'lsa, samaradorlik faoliyat natijasini ifodalaydi. Shu bois ularning o'zaro bog'liqligi bilan birga farqli jihatlarni ham hisobga olish zarur.

Ijtimoiy ishlab chiqarish, xususan xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlikni tadqiq etishda uning mezonlari va ko'rsatkichlarini to'g'ri aniqlash muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlik o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnatning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi kam mehnat sarfi evaziga yuqori xizmat sifati orqali iste'molchilar ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga qaratilgan ko'p qirrali faoliyat natijasi sifatida namoyon bo'ladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini samarali boshqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari va ko'rsatkichlarini tizimlashtirish, guruhlash hamda tasniflash zarur. Bu esa resurslardan foydalanish samaradorligini



oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga imkon beradi.

Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati sarflangan resurs birligiga olingan natija bilan belgilanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa resurslardan samarali foydalanish har qanday xo'jalik faoliyatining asosiy talabi hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari bir tomondan ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ifodalasa, ikkinchi tomondan soha rivojlanishining pirovard natijalarini aks ettiradi.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy samaradorlik xo'jalik subyektlari faoliyati natijalarini ifodalasa, ijtimoiy samaradorlik uning jamiyat hayotiga ta'sirini aks ettiradi. Ushbu ikki kategoriya o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini baholashda mehnat unumdorligi, o'rtacha ish haqi, bir xodimga to'g'ri keladigan xizmat hajmi kabi ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

$$MY_{yc} = \frac{M_{cuz} \times 100}{100 - M_{cuz}}, \quad (1)$$

bu yerda:

MU_{us} – mehnat unumdorligining o'sish sur'ati;

M_{sig} – mehnat sig'imi.

$$MC_{nac} = \frac{MY_{yc} \times 100}{100 + MY_{yc}}, \quad (2)$$

bu yerda:

MU_{us} – mehnat unumdorligining o'sish sur'ati;

M_{sig} – mehnat sig'imi.

$$MC_{nac} = \frac{MY_{yc} \times 100}{100 + MY_{yc}}, \quad (2)$$

bu yerda:

MU_{us} – mehnat unumdorligining bazis davriga nisbatan o'sish sur'ati (%);

MS_{pas} – mehnat sig'imining bazis davriga pasayishi (%);

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligini umumiy o'sishi (ΔMU) xizmatlar ko'rsatish hajmini oshishi va ishlovchilar sonini kamayish hisobiga bo'linadi va u quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\Delta MY = \frac{100 \times (\Delta B + \Delta HC_k)}{100 + C_k}, \quad (3)$$

bu yerda:

ΔV – korxonada hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'sishi, %;

ΔISk – korxonalarda ishlovchilar sonini kamayish, %.

Agarda korxonada ishchilar soni kamaymasa, va aksincha ko'payib borsa, u holda ishchilar sonining foizi teskari belgi bilan ifodalanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat unumdorligini oshishi hisobiga sof mahsulot o'sishining hissasi Dsm

$$D_{cm} = \left(1 - \frac{\Delta Y_u}{\Delta Y_{cm}} \right) \times 100\%, \quad (4)$$

bu yerda:

ΔU_i – xizmat ko'rsatish korxonalarida ishchilar soning o'sish sur'ati %;

ΔU_{sm} – sof mahsulot ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, %.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyati samaradorligini atroflicha va har tomonlama tahlil qilish uchun uning xususiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda umumlashtirilgan ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi. Iqtisodiy adabiyotlarda umumlashgan ko'rsatkichlarga: korxonalar rentabelligi, xarajatlarning nisbiy darajasi, asosiy va aylanma fondlar samaradorligi, sarflangan barcha resurslarning fond samaradorligi kabi ko'rsatkichlar kiradi.

Korxonalar rentabelligi xizmat ko'rsatish korxonasi faoliyatining natijaviy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Korxonalar rentabelligi (R_k) xizmat ko'rsatish sohasida sof foydaning korxonalar asosiy va aylanma aktivlari jami yig'indisi summasiga nisbatining foizidagi ulushi bilan aniqlanadi:

$$R_k = \frac{CF \times 100}{\sum AF + \sum HAA}, \quad (5)$$

bu yerda:

SF – sof foyda hajmi

$\sum AF$ – asosiy ishlab chiqarish fondlari jami qiymati;

ΣNAA – normativ bo'yicha aylanma aktivlar summasi.

Insonlarning har tomonlama va uzviy rivojlanish uchun imkoniyat yaratishni maqsad qilgan jamiyatning pirovard ijtimoiy maqsadga erishishi ijtimoiy samaradorlikni asosiy mezon hisoblanadi.

Ijtimoiy samaradorlikning iqtisodiyot sohalari va tarmoqlaridagi keyingi mezon ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorlikka erishishga bilvosita ta'sir etuvchi iste'mol xarajatlarini kamaytirishdir.

Xizmat ko'rsatish sohasida ijtimoiy samaradorlikni yagona mezon asosida o'lchab bo'lmaydi, chunki soha rivojlanishini ijtimoiy samaradorligining mezon va ko'rsatkichlari turli xildir. Agarda ijtimoiy samaradorlik mezonining mazmuni va vazifalarini ifodalasa, ko'rsatkichlari esa samaradorlikni baholash quroli sifatida xizmat qiladi.

Bizningcha, xizmat ko'rsatish korxonasi va tashkilotlarida ijtimoiy samaradorlikning statik ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga ajratib tadqiq etish mumkin:

Iste'mol talabi qondirilishini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar;

Xizmat ko'rsatish vaqti qisqarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar;

Mehnatning shart-sharoiti va tabiati yaxshilanishini ifodalovchi statistik ko'rsatkichlar.

Bizning fikrimizcha, iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirishini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: aholi jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar hajmi; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi xizmatlar miqdori; ko'rsatiladigan xizmatlarning o'sib borish koeffitsiyenti; xizmat ko'rsatish vaqti qisqarishini ifodalovchi ko'rsatkichlar; iste'molchilarning xizmat ko'rsatish korxonasi va tashkilotlarida sarflaydigan vaqtini kamaytirish koeffitsiyenti; bir iste'molchiga xizmat ko'rsatish uchun sarflanadigan vaqt; har bir iste'molchining xizmat ko'rsatish korxonasi qayta tashrif buyurishi uchun sarflangan vaqt. Bu ko'rsatkich ijtimoiy samaradani pasayganligidan dalolat beradi; o'rta miqdorda bir marta xizmat ko'rsatish kerak bo'lgan shaxs uchun sarflanadigan vaqt.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat sharoitlari va mehnatning xarakterini ifodalovchi ko'rsatkichlarga: mehnat jarayonlarini avtomatlashtirish (yangi texnika va texnologiyalarni qo'llash darajasi); korxonalarining bino va inshootlarini zamon talablari darajasiga javob berishi; xizmat ko'rsatish jarayonida ilg'orlar mehnati tajribasidan foydalanish darajasi; texnik va texnologiyalar, asbob-uskuna va mexanizmlarni ilg'orlik darajasi; servis xizmatida band bo'lgan ishchi-xodimlarning malakasi, ma'lumoti va kasbiy darajasi; servis sohasi uchun kerak bo'lgan xodimlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ularni malakasini oshirishni tashkil qilish darajasi.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlardan bittasi qo'llanilsa, umumiy natijadorlikni namoyon etmaydi. Chunki muayyan ko'rsatkich ijtimoiy samaradani kichik bir yo'nalishini tavsiflaydi. Ushbu ko'rsatkichlar birgalikda joriy etilsa, xizmat ko'rsatish korxonalarini ijtimoiy samaradorligiga yetarlicha baho berish mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslarini boshqarish samaradorligini baholash murakkab, ko'p omilli va tizimli yondashuvni talab etuvchi jarayon bo'lib, u iqtisodiy, ijtimoiy va tashkiliy ko'rsatkichlarning uzviy birligi asosida amalga oshirilishi lozim. Mazkur jarayonda inson kapitali asosiy omil sifatida namoyon bo'lib, uning sifat darajasi korxonasi umumiy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Samaradorlik va unumdorlik kategoriyalarining metodologik jihatdan farqlanishi ularni alohida emas, balki o'zaro bog'liq tizim sifatida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi. Xususan, samaradorlik natija va xarajatlar o'rtasidagi nisbatni ifodalasa, ijtimoiy samaradorlik esa iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish darajasi, xizmat sifati va mehnat sharoitlarining yaxshilanishi orqali namoyon bo'ladi. Shu bois ushbu ko'rsatkichlarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki integratsiyalashgan yondashuv asosida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarida samaradorlikni baholashda ko'rsatkichlar tizimini kompleks yondashuv asosida shakllantirish, mehnat unumdorligi, xizmat sifati, resurslardan foydalanish darajasi hamda ijtimoiy samaradorlik indikatorlarini birgalikda tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu esa korxonasi faoliyatini yanada aniq baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqotda taklif etilgan uslubiy yondashuvlar xizmat ko'rsatish korxonalarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda iqtisodiy va ijtimoiy natijadorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev, Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
2. Say, J. B. Traktat po politicheskoy ekonomii (chegaraviy unumdorlik nazariyasi). – Moskva.
3. Klink, J. B. Raspreделение bogatstva (unumdorlikning kamayib borish nazariyasi). – Moskva.
4. Assel, G. Marketing: printsipi i strategiya. – Moskva: INFRA-M, 1999.
5. Abdurahmonov, Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2019.
6. Bolshoy ekonomicheskiy slovar' / Pod red. A. N. Azrilyana. – Moskva: Institut novoy ekonomiki.
7. Armstrong, M. Human Resource Management Practice. – London: Kogan Page, 2018.
8. Kibanov, A. Ya. Upravlenie personalom organizatsii. – Moskva: INFRA-M, 2019.
9. Savitskaya, G. V. Analiz hozyaystvennoy deyatel'nosti predpriyatiya. – Moskva: INFRA-M, 2020.
10. Sheremet, A. D., & Sayfulin, R. S. Metodika kompleksnogo analiza hozyaystvennoy deyatel'nosti. – Moskva:



Ekonomika, 2021.

11. OECD. Productivity and Efficiency Analysis. – Paris: OECD Publishing, 2020.
12. Becker, G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 2019.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100